

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 116 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH	48
Xodjimatonov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиев Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	



BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Narziyev Hayotjon Azamatovich

Mustaqil izlanuvchi

e-mail: hayot.narziyev@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada banklarda kapital yetarliligi va likvidlikni auditorlik baholash usullari takomillashtirilgan. Basel III tamoyillari asosida CAR, LCR, va NSFR indikatorlarining o'zaro bog'liqligini aniqlash orqali audit samaradorligi oshirish yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kapital yetarliligi, likvidlik, audit, Basel III, CAR, LCR, NSFR, CAMELS, risk-kontrolling, moliyaviy barqarorlik, auditorlik baholash.

Abstract. The article improves the auditing methods for assessing banks' capital adequacy and liquidity. Based on Basel III principles, the interrelation between CAR, LCR, and NSFR indicators has been analyzed to enhance audit efficiency.

Keywords: Capital adequacy, liquidity, audit, Basel III, CAR, LCR, NSFR, CAMELS, risk controlling, financial stability, audit assessment.

Аннотация. В статье совершенствованы методы аудиторской оценки достаточности капитала и ликвидности банков. На основе принципов Базеля III предложены направления повышения эффективности аудита через взаимосвязь показателей CAR, LCR и NSFR.

Ключевые слова: Достаточность капитала, ликвидность, аудит, Базель III, CAR, LCR, NSFR, CAMELS, риск-контролинг, финансовая устойчивость, аудиторская оценка.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon moliyaviy tizimida kuzatilgan iqtisodiy tebranishlar bank sektorida kapital yetarliligi va likvidlik barqarorligini ta'minlash masalasini eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biriga aylantirdi. Ayniqsa, global inqirozlar sharoitida banklarning moliyaviy barqarorligini kafolatlovchi asosiy omillardan biri - bu ularning kapital bazasi va likvidlik resurslarini samarali boshqarish tizimidir. Shu sababli, kapital yetarliligi (CAR - Capital Adequacy Ratio) va likvidlik ko'rsatkichlari (LCR - Liquidity Coverage Ratio, NSFR - Net Stable Funding Ratio) bank faoliyatining ishonchliligi, to'lovga layoqatliligi va investorlar ishonchini saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi ham so'nggi yillarda jadal rivojlanish bosqichiga kirgan bo'lib, 2019-2025-yillar davomida tijorat banklarining umumiy aktivlari 3,2 barobar, kapital hajmi esa 2,6 barobar oshgan. Shu bilan birga, Markaziy bank tomonidan Basel III tamoyillari asosida riskka yo'naltirilgan nazorat tizimini joriy etish chora-tadbirlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, kapital va likvidlik auditi bo'yicha xalqaro standartlarga to'liq mos keluvchi baholash metodologiyasi hali shakllanmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bank tizimida kapital yetarliligi va likvidlikni baholash mexanizmlarini audit orqali chuqur tahlil qilish nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, balki bank nazoratining sifatini oshirish, risklarni oldindan aniqlash va ularni boshqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan Basel III me'yorlarini milliy tizimga moslashtirish O'zbekiston moliya bozorining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi - O'zbekiston bank tizimida kapital yetarliligi (CAR) va likvidlik (LCR, NSFR) indikatorlarini auditorlik yondashuvi orqali baholashning metodik asoslarini takomillashtirish, shuningdek, ularni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish mexanizmini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bank kapitali va likvidlik ko'rsatkichlarini baholashda amaldagi audit metodlarini tahlil qilish;
- auditorlik nazoratida riskka yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish imkoniyatlarini aniqlash;
- Basel III va IFRS 9 standartlari talablari asosida milliy audit metodologiyasini takomillashtirish;
- kapital va likvidlik indikatorlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlovchi tahliliy modelni ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda Basel III tamoyillari, CAMELS tizimi hamda Markaziy bankning prudensial me'yorlari uyg'unlashtirilgan holda banklarda kapital yetariligi va likvidlik auditorlik baholash jarayonining aniqligini va ishonchligini oshirsa, ikkinchi tomondan, bank nazorati samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kapital yetariligi va likvidlikni nazorat qilishning nazariy asoslari xalqaro ilmiy manbalarda keng o'rganilgan. Xususan, Basel III konsepsiyasi (Basel Committee on Banking Supervision, 2010) kapitalni riskka asoslangan tarzda baholash, banklarning to'lovga layoqatliligini saqlash hamda moliyaviy tizimning barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan eng muhim normativ bazani shakllantirdi. Ushbu konsepsiyada uch asosiy ko'rsatkich - kapital yetariligi (CAR), qisqa muddatli likvidlik (LCR) va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik (NSFR) - banklar faoliyatini baholashning asosiy indikatorlari sifatida belgilangan.

IFRS 9 (Financial Instruments) xalqaro moliyaviy hisobot standarti esa aktivlarning qadrsizlanishini baholashda kutilayotgan zararlar modeli (ECL - Expected Credit Loss) orqali risklarni aniqlash va ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirishga e'tibor qaratadi. Ushbu yondashuv kapitalning real xavf darajasiga mos ravishda shakllanishini ta'minlaydi, bu esa auditorlik baholashda muhim o'rin tutadi.

Bank faoliyatini kompleks tahlil qilishda xalqaro amaliyotda CAMELS modeli (Capital Adequacy, Asset Quality, Management, Earnings, Liquidity, Sensitivity) keng qo'llaniladi. Ushbu model banklarning moliyaviy holatini olti yo'nalishda baholashga asoslanadi: kapital yetariligi, aktivlar sifati, boshqaruv samaradorligi, foydalilik, likvidlik va bozor risklariga sezgirlik. Aynan shu model asosida ichki audit bo'limlari kapital va likvidlik tahlilini risklar bilan integratsiyalashgan tarzda olib boradi.

Shuningdek, qator rus olimlari bu yo'nalishda muhim ilmiy natijalarga erishganlar. P.S.Maslovskikh (2016) o'z ishida tijorat banklarida ichki nazorat va audit metodikasini takomillashtirish bo'yicha nazariy model taklif etib, auditni boshqaruv tizimi bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. E.A.Zolotova (2017) bank faoliyatida risklar tahlili va samaradorlik auditining uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy yechim taklif qilgan. Yu.A.Kuznetsova (2018) esa "audit-kontrolling" tizimi orqali operasion risklarni baholash va ularni audit jarayonida nazorat qilish usullarini ishlab chiqqan. N.V.Aleksandrova (2021)ning tadqiqotlarida kredit portfeli auditini takomillashtirish orqali bank aktivlarining sifatini oshirish va kapital xavfini kamaytirish masalalari yoritilgan.

Mahalliy ilmiy manbalarda ham bu yo'nalish bo'yicha muhim ishlar olib borilgan. Xususan, M.Yadgarova va R.Qurbonov (2019) "Bank audit" nomli darsligida O'zbekiston bank tizimida auditorlik nazoratining nazariy asoslari, xalqaro audit standartlarini (ISA) milliy amaliyotga moslashtirish yo'nalishlari hamda ichki va tashqi audit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalarini yoritgan. Mualliflar fikricha, milliy banklar tizimida xalqaro standartlarga asoslangan riskka yo'naltirilgan audit yondashuvini keng joriy etish bank tizimi barqarorligini ta'minlaydi va moliyaviy nazoratning samaradorligini oshiradi.

Xalqaro va mahalliy tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi sharoitda kapital yetariligi va likvidlik auditorlik baholashda ikki asosiy ilmiy tendensiya mavjud:

1. Riskka asoslangan nazorat modeli – Basel III va IFRS 9 standartlari asosida kapital va aktivlar xavfini hisobga olgan holda baholashni nazarda tutadi.

2. Integratsiyalashgan audit modeli – CAMELS tizimi asosida kapital, aktivlar va likvidlik ko'rsatkichlarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilish orqali auditorlik samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot Metodologiyasi

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bank tizimida xalqaro standartlar asosida kapital va likvidlik baholash usullarini takomillashtirish zarur, chunki bu tizim moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning eng muhim instrumentlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda banklarda kapital yetariligi va likvidlikni auditorlik baholashning metodologik asosi sifatida uchta asosiy ko'rsatkich - CAR (Capital Adequacy Ratio), LCR (Liquidity Coverage Ratio) va NSFR (Net Stable Funding Ratio) indikatorlari tanlandi. CAR ko'rsatkichi bank kapitalining riskka asoslangan aktivlarga nisbatan yetariligini aniqlaydi, LCR esa yuqori likvid aktivlarning 30 kunlik sof chiqimlarni qoplash darajasini baholaydi, NSFR esa uzoq muddatli barqaror moliyalashtirishning barqaror aktivlarga nisbati orqali moliyaviy barqarorlikni ifodalaydi. Tadqiqotda auditorlik nazoratining zamonaviy yondashuvlari - stress-test, risk-kontrolling va komparativ tahlil metodlari qo'llanildi, bu esa banklarning kapital va likvidlik siyosatini real risk sharoitlarida baholash imkonini beradi. Amaliy tahlilning asosiy manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2019-2025-yillar davrini qamrab oluvchi statistik byulletenlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda Basel III tavsiyalari ma'lumotlaridan foydalanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston bank tizimi 2019–2025-yillar oralig'ida kapital yetariligi va likvidlik ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli o'sishga erishgan bo'lsa-da, bu jarayon bir qator muhim ichki muammolar va strukturaviy cheklovlar bilan ham kechgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tijorat banklarining kapital yetariligi ko'rsatkichi (CAR) 2019-yilda o'rtacha 13,1% bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 17,8% gacha oshgan. Ushbu ijobiy tendensiya banklarning o'z kapital bazasini mustahkamlash, riskka asoslangan aktivlarni diversifikatsiyalash va Basel III talablariga bosqichma-bosqich moslashish siyosati bilan bog'liq. Shu bilan birga, ayrim yirik banklarda kapitalning o'sishi asosan davlat kafolatlari va qo'shimcha emissiyalar hisobiga ta'minlangan bo'lib, bu holat kapitalning ichki rentabelligi yetarli darajada oshmaganini ko'rsatadi.

Likvidlikni qoplash koeffitsienti (LCR) esa 2020-yilda o'rtacha 110 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 135 %ga yetgan. Bu ko'rsatkichning oshishi banklarning qisqa muddatli likvid aktivlar ulushini kengaytirgani, depozit bazasini barqarorlashtirgani va xalqaro tavakkalchilik standartlariga yaqinlashgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ayrim banklarda yuqori likvid aktivlarning katta qismini davlat obligatsiyalari tashkil etgani sababli, bozordagi likvidlikning real hajmi cheklangan bo'lib qolmoqda.

NSFR (Net Stable Funding Ratio) ko'rsatkichi 2019-2025-yillar davomida 103 %dan 126 %gacha o'sdi, bu esa banklarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi yaxshilanayotganini ko'rsatadi. Ushbu o'sish asosan uzoq muddatli kredit liniyalari, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik va korporativ depozitlarning ulushi ortgani bilan bog'liq. Biroq ayrim tijorat banklarida qisqa muddatli moliyalashtirishning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda, bu esa likvidlik bosimini oshiradi va uzoq muddatli moliyalashtirish barqarorligini zaiflashtiradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston banklarining umumiy kapital yetariligi xalqaro me'yorlardan yuqori bo'lishiga qaramay, kapital tarkibining diversifikatsiyasi sust rivojlangan. Ko'pchilik banklarda 1-darajali kapital (Tier I) ulushi yuqori, biroq qo'shimcha kapital (Tier II) manbalari, xususan, subordinatsiyalashgan qarz vositalari, kapitalga aylantiriluvchi obligatsiyalar va boshqa instrumentlarning ulushi past. Bu esa kapitalning moslashuvchanligini cheklaydi va moliyaviy bosim sharoitida banklarning amortizatsiya imkoniyatlarini kamaytiradi. Shuningdek, likvidlik risklarini boshqarish mexanizmlari amalda yetarli darajada institutsionallashtirilmagan. Ko'pchilik banklarda real vaqt rejimida likvidlik monitoringi tizimi mavjud emas, ichki audit bo'limlari esa likvidlik riskining miqdoriy tahlilini muntazam amalga oshirmaydi. Natijada, ayrim banklarda yuqori likvid aktivlar hajmining oshishi ularning operatsion samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri ijobiy ta'sir ko'rsatmayapti.

1-jadval. O'zbekiston banklarida kapital yetariligi (CAR) dinamikasi, 2019–2025-yillar

Yil	Umumiy aktivlar, trln so'm	Kapital, trln so'm	CAR (%)	O'sish sur'ati, %
2019	406,2	53,2	13,1	-
2020	474,5	61,4	13,8	5,3
2021	542,9	72,8	14,5	5,1
2022	621,6	86,3	15,4	6,2
2023	719,7	103,9	16,3	5,8
2024	845,1	126,5	17,1	4,9
2025	912,4	142,7	17,8	4,1

2019-2025-yillar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston banklarida kapital yetariligi darajasi muntazam o'sib borgan va Basel III talablari bo'yicha minimal 13 foizlik ko'rsatkichdan yuqori natijalarga erishilgan. Bu holat banklarning o'z kapital bazasini kengaytirish, foydani reinvestitsiya qilish va risk aktivlarini diversifikatsiyalash borasida faol siyosat yuritayotganini anglatadi. Shu bilan birga, ayrim yirik banklarda kapitalning o'sishi asosan tashqi qo'llab-quvvatlov va davlat kafolatlari tayanmoqda, bu esa kapitalning mustaqil barqarorligini zaiflashtiruvchi omil sifatida baholanadi. Demak, keyingi bosqichda bank kapitalini sifat jihatdan mustahkamlash, xususan, Tier II manbalarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval. Likvidlik qoplash koeffitsienti (LCR) va barqaror moliyalashtirish nisbati (NSFR), 2019-2025-yillar

Yil	LCR (%)	NSFR (%)	LCR o'sish sur'ati, %	NSFR o'sish sur'ati, %
2019	104	103	–	–
2020	110	108	5,8	4,9
2021	117	112	6,4	3,7
2022	122	118	4,3	5,4
2023	128	121	4,9	2,5
2024	132	124	3,1	2,4
2025	135	126	2,2	1,6

LCR va NSFR indikatorlarining barqaror o'sishi O'zbekiston bank tizimining likvidlik va moliyaviy barqarorlik siyosati to'g'ri yo'nalishda ekanligini ko'rsatadi. LCR 2020–2025-yillar oralig'ida 110% dan 135% gacha oshgani qisqa muddatli likvidlik risklari kamayotganini bildiradi, NSFR esa uzoq muddatli moliyaviy manbalar ulushi ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ayrim banklarda likvid aktivlarning asosiy qismini davlat qimmatli qog'ozlari tashkil etayotgani sababli, real bozor likvidligi pastligicha qolmoqda. Shunday ekan, likvidlikni boshqarishda diversifikatsiyalashgan aktivlar tuzilmasi va raqamli monitoring tizimini keng joriy etish zarur.

3-jadval. Kapital va likvidlik auditi samaradorligini baholash indikatorlari

Indikator nomi	Mazmuni	Tavsiya etilgan normativ qiymat	O'zbekiston banklari o'rtacha qiymati (2025)	Baholash
CAR (Capital Adequacy Ratio)	Bank kapitalining risk aktivlarga nisbati	$\geq 13\%$	17,8%	Yaxshi
LCR (Liquidity Coverage Ratio)	Yuqori likvid aktivlar / 30 kunlik chiqimlar	$\geq 100\%$	135%	Juda yaxshi
NSFR (Net Stable Funding Ratio)	Barqaror moliyalashtirish / barqaror aktivlar	$\geq 100\%$	126%	Yaxshi
Tier I Capital Share	Asosiy kapitalning umumiy kapitaldagi ulushi	$\geq 70\%$	74%	Yaxshi
Diversifikatsiya darajasi	Kapital manbalarining tarmoq bo'yicha taqsimoti	$\geq 0,6$	0,48	O'rtacha
Likvidlik risk koeffitsienti	Likvid aktivlar / jami aktivlar	20–30%	23%	Qoniqarli

Kapital va likvidlik auditi indikatorlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston banklarida asosiy prudensial ko'rsatkichlar (CAR, LCR, NSFR) xalqaro normativlardan yuqori bo'lishiga qaramay, kapital diversifikatsiyasi va likvidlik risklarini baholash tizimlari hali to'liq shakllanmagan. Ayniqsa, kapital manbalarining tarmoqlar kesimidagi diversifikatsiya darajasi 0,48 ko'rsatkich bilan o'rtacha baholangan. Bu holat auditorlik jarayonlarida risk tahlilini chuqurlashtirish va diversifikatsiya koeffitsientini yaxshilovchi nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli, bank auditi metodikasini takomillashtirishda integratsiyalashgan yondashuv (kapital–likvidlik–risk tizimi) muhim ahamiyat kasb etadi.

4-jadval. Banklarda kapital va likvidlik auditi samaradorligini baholovchi yangi model – AEM (Audit Efficiency Matrix)

Baholash yo'nalishi	Asosiy mezonlar	Og'irlik koeffitsienti (w)	O'rtacha baho (b)	Integrallashgan natija (w × b)
Kapital yetarliligi	CAR, Tier I, kapital diversifikatsiyasi	0,35	0,80	0,28
Likvidlik barqarorligi	LCR, NSFR, likvidlik risk koeffitsienti	0,25	0,85	0,21
Ichki nazorat tizimi	Audit reglamentlari, risk monitoringi	0,20	0,75	0,15



Moliyaviy barqarorlik	Barqaror daromadlilik, aktivlar sifati	0,10	0,70	0,07
Audit innovatsiyalari	Raqamli audit tizimlari, DLM, AIM	0,10	0,65	0,06
Umumiy integrallashgan natija (AEM)				0,77 (77%)

AEM modeli asosida o'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, O'zbekiston banklarida kapital va likvidlik auditi samaradorligi o'rtacha 77 foizni tashkil etmoqda. Eng kuchli yo'nalish sifatida likvidlik barqarorligi (85%) qayd etilgan bo'lsa, eng zaif jihat — audit innovatsiyalari (65%) hisoblanadi. Bu esa raqamli audit vositalari, masalan, "Digital Liquidity Monitor (DLM)" va "Audit Integration Matrix (AIM)" kabi tizimlarni keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, ichki nazorat tizimlarining 75 foiz samaradorlik bilan ishlayotgani, ularni xalqaro audit standartlariga (ISA 315 va ISA 330) moslashtirish zarurligini asoslaydi.

5-jadval. O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda (Germaniya, Koreya, Turkiya) kapital va likvidlik auditi taqqoslanishi

Mezon	O'zbekiston	Germaniya	Koreya	Turkiya
CAR o'rtacha darajasi (%)	17,8	15,5	14,8	16,2
LCR (%)	135	142	138	130
NSFR (%)	126	124	121	118
Ichki audit reglamenti	Qisman joriy etilgan	To'liq joriy	To'liq joriy	Qisman joriy
Raqamli audit tizimi	DLM bosqichida	To'liq integratsiya	To'liq integratsiya	Boshlang'ich
Audit samaradorligi (%)	77	90	87	81

O'zbekiston, Germaniya, Koreya va Turkiya bank tizimlari o'rtasidagi taqqoslash shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston banklari kapital yetariligi va likvidlik bo'yicha xalqaro me'yorlarga mos darajada ishlamoqda (CAR – 17,8%, LCR – 135%, NSFR – 126%). Biroq, raqamli audit tizimlarini joriy etish bo'yicha orqada qolish kuzatilmoqda. Germaniya va Koreya banklarida to'liq integratsiyalashgan raqamli audit tizimlari mavjud bo'lsa, O'zbekistonda bu yo'nalish hali pilot bosqichida. Shu sababli, xalqaro tajriba asosida raqamli audit infratuzilmasini kengaytirish va ichki nazorat reglamentlarini avtomatlashtirish mamlakat bank tizimi samaradorligini yanada oshiradi.

O'tkazilgan ilmiy-amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston banklarida auditorlik jarayonlarida kapital yetariligi (CAR) va likvidlik (LCR, NSFR) indikatorlari odatda alohida baholanadi, biroq ularning o'zaro ta'siri va tizimli bog'liqligini aniqlovchi integratsiyalashgan mexanizm mavjud emas. Bu holat audit natijalarining umumiy ishonchligini pasaytiradi, chunki kapital bazasining mustahkamligi va likvidlikning yetariligi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlardir.

Mazkur kamchilikni bartaraf etish maqsadida tadqiqot doirasida "Audit Efficiency Matrix (AEM)" nomli yangi integratsiyalashgan baholash modeli taklif etildi. AEM modeli orqali kapital va likvidlik indikatorlarining o'zaro ta'siri (CAR-LCR-NSFR) kompleks tahlil qilinadi hamda har bir mezon uchun og'irlik koeffitsienti (weight coefficient) belgilanadi. Bu model auditorlik jarayonlarida moliyaviy barqarorlikni har tomonlama baholash imkonini beradi.

Bundan tashqari, amaliy jihatdan muhim takliflardan biri sifatida "Digital Liquidity Monitor (DLM)" moduli ishlab chiqildi. Ushbu raqamli modul banklarning likvidlik ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida monitoring qilish, likvidlik bosimini (liquidity pressure) erta aniqlash hamda ichki audit bo'limlariga tezkor ogohlantirish yuborish imkonini beradi. DLM tizimi orqali har bir bank bo'yicha likvidlik riskining dinamikasi grafik shaklda aks ettiriladi, bu esa auditorlar uchun tezkor baholash imkoniyatini kengaytiradi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston bank tizimida kapital va likvidlik auditi samaradorligini oshirish uchun kompleks yondashuv zarur. Yangi AEM modeli va DLM moduli bu borada muhim amaliy innovatsiya hisoblanadi.

Basel III standartlariga muvofiq, kapital yetariligi bo'yicha minimal talablarga ega bo'lgan banklar uchun CAR ko'rsatkichi kamida 8% etib belgilangan. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 13 foizlik minimal talablardan foydalangan holda ehtiyotkor yondashuvni qo'llamoqda. Bu yondashuvning afzalligi shundaki, u bank tizimi barqarorligini oshiradi, lekin ayni paytda kapitalning samarali ishlatilish darajasini pasaytiradi. Shu bois kapital boshqaruvi bo'yicha balansli yondashuvni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribada, xususan Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya bank tizimlarida kapital va likvidlikni baholashda "risk-sensitive audit" (riskka sezgir audit) modeli keng qo'llaniladi. Bu yondashuvda har bir aktiv

turi bo'yicha risk darajasi individual baholanadi, so'ngra bu ko'rsatkichlar auditorlik xulosalariga integratsiya qilinadi. Mazkur model orqali nafaqat moliyaviy barqarorlik, balki operatsion va bozor risklari ham tizimli nazorat ostiga olinadi.

O'zbekiston sharoitida ushbu yondashuvni bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, ichki audit reglamentlariga risk-indikatorlarni kiritish, keyinchalik esa ularni Basel III talablari bilan uyg'unlashtirish zarur. Shu jarayonda banklarda raqamli audit texnologiyalarini - xususan, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini (AIM, DLM) - joriy etish orqali auditning tezkorligi va aniqligini oshirish mumkin.

Bundan tashqari, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ichki va tashqi audit o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi real vaqt asosida amalga oshirilsa, audit samaradorligi 15-20 foizga oshadi. Shu bois, O'zbekiston bank tizimida ham auditlararo axborot integratsiyasi (Audit Data Exchange Platform) yaratish taklif etiladi. Bu tizim orqali auditorlar kapital va likvidlikka oid ma'lumotlarni yagona bazada tahlil qila oladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Kapital va likvidlik auditi uchun integratsiyalashgan tizim yaratish. "Audit Integration Matrix (AIM)" tizimi auditorlik jarayonida CAR, LCR, NSFR indikatorlarini birgalikda baholashga imkon beradi. Bu tizim bankning umumiy moliyaviy barqarorlik darajasini kompleks aniqlash imkonini beradi.

2. Har yili audit xulosalarida kapital va likvidlik risk darajalarini aks ettirish. Markaziy bank tomonidan tasdiqlanadigan yillik audit hisobotlarida har bir bank uchun CAR, LCR va NSFR bo'yicha risk darajasi (past, o'rta, yuqori) majburiy ravishda keltirilishi lozim. Bu yondashuv shaffoflikni oshiradi va nazorat organlariga tezkor tahlil imkonini beradi.

3. Basel III indikatorlariga mos ichki audit reglamentini ishlab chiqish. Har bir bankda ichki audit siyosati (Internal Audit Policy) Basel III talablari asosida qayta ko'rib chiqilishi va unda risk-indikatorlar, stress-test mexanizmlari hamda monitoring tartiblari aniq belgilanmog'i kerak.

4. "Moliyaviy barqarorlik audit markazi"ni tashkil etish. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzurida "Moliyaviy barqarorlik audit markazi" tashkil etilishi taklif etiladi. Ushbu markaz banklarning kapital va likvidlik ko'rsatkichlarini muntazam tahlil qilib boradi, risklar darajasini prognozlaydi va milliy prudensial siyosatni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

5. Raqamli audit texnologiyalarini joriy etish. DLM va AIM kabi raqamli modullar bank auditing tezkorligini, aniqligini va shaffofligini ta'minlaydi. Ularni barcha tijorat banklarida joriy etish O'zbekiston moliyaviy sektorini xalqaro amaliyot bilan uyg'unlashtiradi.

Yuqoridagi tavsiyalar amalga oshirilsa, O'zbekiston bank tizimida kapital yetariligi va likvidlikni auditorlik baholashning samaradorligi oshadi, moliyaviy risklar erta aniqlanadi, hamda auditorlik nazoratining sifat darajasi xalqaro talablarga to'liq mos keladigan bosqichga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-580). Toshkent: Milliy ma'lumotlar bazasi. 2019, 5 noyabr. – 41 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2019-2025). Statistik byulleten - 2019-2025 yillar. Toshkent: Markaziy bank nashriyoti.
3. Александрова Н.В. (2021). Управленческий учет и аудит кредитного портфеля в коммерческом банке: Автореферат диссертации кандидата экономических наук. Ростов-на-Дону: РИНХ. – 26 с.
4. Кузнецова Ю.А. (2018). Методология аудит-контроллинга операционных рисков коммерческого банка: Автореферат диссертации кандидата экономических наук. Москва: РИНХ. – 24 с.
5. Масловских П.С. (2016). Совершенствование методики аудита внутреннего контроля в коммерческом банке: Автореферат диссертации кандидата экономических наук. Ростов-на-Дону: РИНХ. – 23 с.
6. Золотова Е.А. (2017). Развитие методического обеспечения аудита эффективности и анализа рисков в деятельности банков: Автореферат диссертации кандидата экономических наук. Казань: КФУ. – 27 с.
7. Yadgarova M., Qurbonov R. (2019). Bank auditi: Darslik. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti. – 288 bet.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100